

ABU BAKR XATIB BAG'DODIYNING ILMIY SAFARLARI

Abu Bakr Xatib Bag'dodiy (1002-1072) Islom olamida mashhur muhaddis, tarixchi olim sifatida shuhrat topgan. Olimning to'liq ismi Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Mahdiy bo'lib, 392/1002-yil dunyoga kelgan va Darzijonda voyaga yetgan. Bu Bag'dodning janubi-g'arbidagi katta qishloq bo'lib, g'arbiy tomondan Bag'dodning Dajla daryosiga yaqin hudud hisoblangan¹.

O'zining "Mu'jam al-buldon" asarida, tarixchi, sayyoh olimlardan biri Yoqut Hamaviy (vaf.1228 y.) quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Darzijonda Abu Bakr Ahmad ibn Sobit Xatib Bag'dodiy tug'ilgan. Uning otasi u yerda va'z aytar edi. Men u yerni ko'rganman. Darzijon fors Kisrolarining (qadimgi fors podshohlari shunday atalgan) yetti shaharlaridan biri bo'lgan. Aslida u Darzindon deb atalgan edi, arab tiliga Darzijon bo'lib kirib kelgan".²

Olim islom ilmlarining barcha sohalarida, ayniqsa, hadis, fiqh hamda tarix ilmlariga katta ahamiyat bergan. Olimning asarlarining ko'pi bugungi kungacha ishonchli manba sifatida saqlanib qolgan, ular o'zining keng qamrovliligi va teran mohiyati bilan shuhrat qozongan. Uning "Tarixu Bag'dod" kitobida diyorimizdan yetishib chiqqan qator muhaddis va tarixchilar haqlarida qimmatbaho ma'lumotlar mavjud.

Olimning ilm talabida safar qilishini ham alohida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Abu Bakr Xatib aytadi: "Hadis talabida safar qilishimdan ikki maqsadim bor edi: "Biri isnod³ni bilish qobiliyatini egallash va eshitish, ikkinchisi, hadis yodlaganlar bilan uchrashish, ular bilan muzokaralar qilish va ulardan ta'lim olish. Agar shu ikki holat ilm oluvchining o'z yurtida mavjud bo'lsa va boshqa

¹ Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo / Mahmud Ayman ash-Shabroviy tahriri ostida. 18 jildli. – Qohira: Dor ul-hadis, 2006. – J. 11. – B. 413.

² Hamaviy Shihobuddin Abu Abdulloh Yoqut ibn Abdulloh al-Bag'dodiy. Mu'jam al-Buldon. 5 jildli. – Bayrut. Dor al-fikr, 1980. – J. 2. – B. 513.

³ Isnod (الإسناد)- hadisni uning aytuvchisiga bog'lash, ya'ni matnga olib boradigan roviylar zanjiri.

yurtlarda mavjud bo'lmasa, safar qilishining foydasi yo'q, o'z shahri bilan cheklanishi kerak".⁴

Xatib Bag'dodiy ilm talabida safarlar qilgan, bag'dodlik olimlardan ilm o'rganish bilan kifoyalanmay ko'plab mamlakat va shaharlarga safar qilgan, ko'plab ustozlar bilan uchrashib, ular haqida o'z asarida keltirib o'tgan.

Muhaddis avvalo, safarini Bag'dodga yaqin shaharlarga borishdan boshladi⁵. Xatib Bag'dodiy o'zi uchrashgan va "Tarixi Bag'dod" asarida zikr qilgan Bag'dodga yaqin ba'zi ustozlarining qishloq va shaharlarini aylanib chiqqan. Bu shahar va qishloqlar quyidagilardir:

Jarjaroyo (Dajla bo'yidagi shahar): Sharqiy tomondan Bag'dod va Vosit o'rtasidagi quyi Nahravon viloyatlaridan biri⁶. Bu yerdan ko'plab olimlar, shoirlar, vazirlar va kotiblar yetishib chiqqan. Bu shaharga nisbat beriladigan Muhammad ibn Fazl Jarjariy Abbosiy xalifalardan Mutavvakilning (hukmronligi 232/847-247/861) vaziri bo'lgan. Bu yerda Xatib Bukron ibn Toyiyib as-Saqotiydan ilm olgan.

Ukbaro: Bu shahar haqida "Mu'jam al-buldon"da: "Ko'rinishidan bu arabcha so'z emas. Arab tilida ayollarning Ukbura ismi ma'lum, u lug'atda qattiqqo'l degani, Suryoniy tilida u Ukbaro deyiladi. U bilan Bag'dod o'rtasi 10 farsax⁷, ukbaroliklar Ukbaroviy deyiladi. U yerda o'z asrining imomi Muhibiddin Abulbaqo Abdulloh ibn Husayn Nahviy Ukbariy yashagan, va 616/1219-yil vafot etgan"⁸ degan xabari keltirilgan. Xatib bu yerda Hasan ibn Shihob al-Ukbariy, Abu Hafs Amr ibn Ahmad ibn Usmon al-Bazzoz, Ahmad ibn Ali ibn Ayyub al-Ukbariy va Husayn ibn Muhammad ibn Aquliydan ta'lim olgan. Shuningdek, u Ukbaroda Ibn Aquliydan hadis eshitgan vaqtini qayd qilib qo'ygan va bu

⁴ Abu Bakr Ahmad ibn Ali al-Xatib al-Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some' / Mahmud Tahhon tahriri ostida. – Ar-Riyod: Maktaba ma'orif, 1983. B. 168-169

⁵ Akrom Ziyoy al-Umariyning "Mavorid al-Xatib al-Bag'dodiy fi tarixi Bag'dod" asarida 35 dan 46 sahifasigacha keltirilgan.

⁶ Hamaviy Yoqut. Mu'jam al-Buldon. J. 3. – B. 143.

⁷ Farsax (الفارس) – uni farsang yoki parsang shaklida ham uchratish mumkin. U 3 miyl (hozirda har bir miyl – 1848 metrga teng) yoki o'rtacha tashlangan 12000 qadam bo'lib, farsax 5544 metrga tengdir.

⁸ Hamaviy Yoqut. Mu'jam al-Buldon. J. 3. B. – 160.

410/1019-yildir. Ushbu safari davomida yana boshqalardan ham ta'lim olganmi yo'qmi bunisi aniq emas.

Al-Anbar Balx yaqinidagi shahar. U Jurjon vohasining bosh shahri. Bu yerda podshohlar qarorgohlari mavjud bo'lgan. Tog' yaqinida joylashgan bo'lib, Marvdan katta, u yerda suvlar, bog'lar, uzumzorlar ko'p bo'lgan. Ularning uylari loydan qilingan, Bag'dod bilan orasi 10 farsaxni tashkil etgan. Forslar bu shaharni Fayruzsabur deb atashgan⁹. Xatib Anbarda Muhammad ibn Ahmad al-Laxmiy, Abu Tohir Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Saqr al-Xatib kabilardan hadis eshitgan.

An-Nahravon – ko'pincha nun kasrali bo'lib, Nihrvon tarzida ham uchraydi. Uch qismga bo'lingan: yuqori, o'rta va quyi. Nahravon Bag'dod va Vosit o'rtasidagi keng hudud bo'lib, sharqiy tomondan yuqori Nahravon Bag'dod bilan chegaradosh bo'lgan va u yerda ko'plab shaharlar ham bor edi. Masalan: Iskof, Jarjaroyo, Sofiya, Dayriqunniy¹⁰. Bu yerda muhaddis Ahmad ibn Umar an-Nahravoniydan, Muofiy ibn Zakariyo al-Jaririy an-Nahravoniy asarlarini o'rgangan.

Darzijon: Xatibning o'zi o'sib, ulg'aygan joy bo'lib, bu yerda Qozi Abul Husayn Ahmad ibn Umar ibn Alidan hadis eshitgan.

Olimning Kufa va Basraga safari unga ko'plab muvaffaqiyat olib keldi. Jumladan, bu sayohati davomida u ko'pgina muhaddislar bilan uchrashdi va ulardan hadis eshitdi. U 20 yoshida Kufani kesib o'tib Basraga boradi. Manbalarda bu vaqt 412/1021-yil ekanligi keltiriladi¹¹. Olim o'zining "Tarixu Bag'dod" asarida Basrada uchrashgan ustozlarini keltirib o'tadi.

Bag'dodga qaytgan yili muhaddis mashhur bo'lib ketadi, unga nisbatan hurmat-e'tibor oshib boradiki, hatto o'zining ulug' shayxlaridan biri hisoblangan Abul Qosim al-Azhariy ham Xatib safardan qaytganida undan dars oladi.

⁹ Hamaviy Yoqut. Mu'jam al-Buldon. J. 1. B. – 313.

¹⁰ O'sha asar. J. 5. – B. 375.

¹¹ Akrom Ziyo al-Umariy. Mavorid al-Xatib al-Bag'dodiy fi tarixi Bag'dod. – B. 38.

Uning Mashriqqa qilgan ilk safari ham besamar ketmadi, chunki u bu safarni ustoz bilan maslahat qilgan holda amalga oshirdi. Birinchi sayohatidan uch yil o'tib, u yana safar qilishga tayyorgarlik ko'radi, lekin Misr yoki Nishopur o'rtasidagi qay bir yurtning tanlashda ikkilanib qoladi. Shunda ustoz Abu Bakr al-Barqoniy qayerga borishni aniqlashga yordam beradi. Ustozining maslahati bilan Nishopurga yo'l oladi. Bu safari behuda ketmadi, ko'pgina muhaddislar bilan uchrashib ulardan hadislarini rivoyat qiladi. Shuningdek, Xatib 415/1024-yili Nishopurning yarmini kezib chiqadi.

Shubha yo'qki, Nishopurga safar o'sha vaqtda sharqdagi yana bir muhim madaniyat markaziga ilm yo'lida ziyorat qilish hisoblanadi. Xatibning Nishopurga safari faqat shu shahar bilangina cheklanib qolmaydi, balki bu shahar yo'lida joylashgan yurtlarga ham borib, qaytishda to'xtab o'tgan. Bu davrda Nishopur bitta mashhur olim bilan cheklanib qolmagan edi, bu yerda turli ilm sohalari bo'yicha yetuk olimlar yetishib chiqqan. Turli taraflardan tolibi ilmlar bu shaharga ilm olish maqsadida kelishgan. Bag'dodiyning Nishopurda qancha vaqt turgani ma'lum emas, lekin bu joyda bo'lgan vaqti Nishopurga borish-kelishda uchragan qolgan shaharlar – Hulvon Asadaboz, Humzon, Sava va Ray kabilardan uzoqroq muddat qolganligi aniq. 415/1024- yilda boshlangan mashriqqa birinchi safari qancha muddat davom etgani ma'lum emas. U yerlarda ko'plab shayxlar bilan uchrashib dars olganl ekin, bu joylarda uzoq qolmagan, sababi uning niyati Nishopur bo'lgan va 415/1024-yili ushbu shaharga yetib kelgan va ramazon oyida shu yerda bo'lgan¹². Xatib "Tarixu Bag'dod" asarida rivoyat qilgan (o'zi uchrashgan) shayxlarning ba'zilarini ko'rishgan joylarini keltirib o'tgan.

Xatibning Bag'dodga qachon qaytganligi ma'lum emas lekin, 419/1028-yilda Bag'dodda bo'lganligi manbalarda aniq keltirilgan. Shunisi aniqki, u 419/1028-yilda Bag'dodda bo'lgan. Balki, Bag'dodga shu yildan oldinroq qaytgandir.

¹² Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad az-Zahabiy. Siyar a'lom an-nubalo / Mahmud Ayman ash-Shabroviy tahriri ostida. 18 jildli. – Qohira: Dor ul-hadis, 2006. – J. 11. – B. 422.

Xatib Bag‘dodiyning Bag‘dodda uzoq vaqt bo‘lganligi to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu yerda u 423/1032-440/1048-yillar mobaynida yashaganligi ma’lum¹³. Bu uning hayotidagi noaniq oraliqdir. Ismoil ibn Ahmad Xayriy Naysoburiy keltirgan manbadagina bu muddat keltirib o‘tiladi. Boshqa asarlarda bu haqida uchratmaymiz.

Olimning Shomga qilgan safari ham ilmiy muhitiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Xatib Bag‘dodiy tez-tez Damashqqa safar qilib turgan. Bu yerda uning 440/1048-yilda bo‘lganligi qayd etilgan. 444/1052-yili Makkaga muborak haj safariga ketayotganida biroz muddat kirib o‘tgan. 445/1053-yil ramazon oyida hajga borish yo‘lida yo‘l-yo‘lakay Damashq shahriga kirib o‘tadi. Hajdan qaytishda yana Shomga keladi. 446/1054-yili Damashqqa qaytadi. Uning Damashqqa to‘rtinchi safari esa 451/1059-yili bo‘lgan.

Xatib Bag‘dodiy Bag‘doddan tashqari faqatgina Damashqdagina uzoqroq muddat yashaganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zining xabar berishicha, u Damashqdagi Umaviylar jome’ masjidida ilm majlislarini o‘tkazgan. Shu narsa aniqki, Bag‘dodiy ko‘plab Damashq ulamolaridan ta’lim olgan va ilmini boyitib borgan hamda ular orasida istiqomat qilgan.

Uning Hijozga safari ham sermahsul bo‘lgan. Xatib Bag‘dodiy Makkaga haj ibodatini bajarish uchun kelganligi va 445/1053-yili bu yerda bo‘lgani haqida ma’lumotlarni uchratamiz. Shuningdek, Makkada “Tarixi Bag‘dod”da zikr etilgan ba’zi ustozlari bilan uchrashadi.

Xatib Bag‘dodiy o‘n bir yilga cho‘zilgan uzoq muddatli safarlaridan so‘ng nihoyat o‘z yurti Bag‘dodga qaytadi. 462/1070-yil u shaharga yetib keladi. Bag‘dodiy Hijoz safaridan qaytgach, Nizommiya madrasasi yonida istiqomat qila boshlaydi. U ba’zida Mansur jome’sida, ba’zida esa o‘z uyida ilm majlislarini uyushtirardi va talabalar uning rivoyatlarini o‘rganishardi. 463/1071-yili ramazon oyida betob bo‘lib qoladi. U kiyimlarini tarqatib yuborishni va kitoblarini musulmonlarga berishni vasiyat qilib qoldiradi. Kitoblarini Abu Fazl ibn Xayrunga

¹³ Akrom Ziyo. Mavorid al-Xatib al-Bag‘dodiy. – B. 36.

so‘rab kelganlarga berish uchun topshiradi. Shu yili zulhijja oyining yettinchi sanasida dushanba kuni Xatib Bag‘dodiy betoblikdan so‘ng vafot etadi¹⁴.

Shu narsa aniqki, Xatib Bag‘dodiy o‘z oldiga biografiya, tarix, adabiyot borasidagi saralangan asarlarni topa olgan. Bag‘dod tarixini qamrab olgan rivoyat asarlarini o‘zi saralab chiqqan. Uning biografiya sohiblari haqidagi ma’lumotlari boshqalaridan kengroq yozilgan. U vaqti kelganda ularni izohlab bergan.

Xatib Bag‘dodiy muhaddis, faqih va tarixchi sifatida samarali faoliyat olib borgan. Shu bilan birga o‘z davridagi boshqa muhaddislar kabi ilmiy saviyasi va faoliyatini takomillashtirish maqsadida o‘z umrining ma’lum qismini muhaddislarga xos bo‘lgan safarlarda ham o‘tkazgan. U o‘zidan keyin ijod qilgan barcha tarixchi-muhaddislarga ustoz hisoblanib, yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarni o‘z asarida keltirib o‘tgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abu Bakr Xatib Bag‘dodiyning boy va qimmatli ilmiy-ma’naviy merosi, xususan, uning “Tarixi Bag‘dod” asari yurtimiz ilm-fan va madaniyati tarixini o‘rganishda, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizni tiklashda muhim ahamiyatga molik manba sifatida xizmat qiladi.

Alloma qoldirgan ilmiy-ma’naviy merosga tayanib, yurtimizdan yetishib chiqqan bir qator olimlar hayoti va ular tomonidan milliy, ma’naviy merosimizga qo‘shilgan qimmatli ma’lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

(Yosh sharqshunoslar to‘plamida nashr ettirilgan)

¹⁴ Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ibrohim ibn Abu Bakr ibn Xallikon. Vafoyot ul-a’yon va anba abno az-zamon / Ihson Abbos tahriri ostida. - Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998. B. 112.